

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK PERIMETRI

Abduvaliyeva Nigora Abdisolamovna

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani 41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmada 1-sinf o‘quvchilariga matematika fanidan “To‘g‘ri to‘rtburchak perimetri” mavzusida bir soatlik ochiq dars ishlanma zamonaviy davlat ta’lim standartlari asosida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri, burchak, amaliy, sanoqlar, uzunlik, kartochkalar, perimetr.

To‘g‘ri to‘rtburchak perimetri

Dars maqsadi:

- to‘g‘ri to‘rtburchak perimetri bilan tanishish;
- perimetrni topish uchun nostandart narsalardan foydalanish

Asosiy tushunchalar:

to‘g‘ri to‘rtburchak, tomon, uzunlik, perimetr

Didaktik materiallar

-darslik ilovasidagi shakllar (har bir o‘quvchi uchun), sanoq cho‘plari (har bir o‘quvchi uchun), qalamlar (har bir o‘quvchi uchun), ilovadagi sonli kartochkalar (har bir o‘quvchi uchun)

Standartlar

O‘BTD. M.01.G.YPH.1 To‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat yoki uchburchakning perimetrini nostandart o‘lchov birliklari yordamida o‘lchash

To‘g‘ri to‘rtburchak perimetri


KIRISH 5 daqiqa

KUN MASHQI 3 daqiqa

Kalendar: O‘quvchilardan bugungi sana va faslni so‘raladi.



Mashq: **“O‘rningni top” mashqi.** 3 ta o‘quvchiga bir nechta sonli kartochkalar tarqating. Ularda 100 gacha bo‘lgan biror son yozilgan.



O‘quvchilardan kartochkalarni qo‘llarida ushlab, kamayish tartibida chapdan o‘ngga joylashishini so‘rang.

O‘tilgan mavzuni takrorlash: 2 daqiqa

Bunda **“Bilimdon matematik”** usulidan

$$45 + 10 = 55$$

foydalanamiz.. 45 ga 10 ni qo‘shing va natijasini sonli kartochkalarda ko‘rsating.

ASOSIY QISM 40 daqiqa

Misolni ko‘rsatish va mustaqil ish: 5 daqiqa

Bugun biz siz bilan to‘g‘ri to‘rtburchak perimetrini topishni o‘rganamiz. O‘quvchilarga o‘zlari istagan kitob yoki daftarining eni va bo‘yining uzunligini sanoq tayoqchasi yordamida o‘lchab, daftariga yozishini ayting.

O‘qituvchiga eslatma! Agar o‘quvchilar shakl yoki predmetlarni nostandart o‘lchov, ya‘ni tayoqchalar, qog‘oz qisqich (skrepka), qadam yoki boshqa narsalar bilan o‘lchaganda, ular o‘lchayotgan narsa 3 ta tayoqcha emas, sal oshig‘i bilan chiqsa, uni yuqoriga yoki pastga yaxlitlab, 3 ta yoki 4 ta tayoqcha deb o‘lchashlarini ayting.

Muhokama 15 daqiqa


1-QISM: O‘quvchilar javoblari bilan o‘rtoqlashadilar. Kamida 3 nafar o‘quvchidan sinfga javoblarni topish jarayonini tushuntirishini so‘rang. Siz qanday shaklni o‘lchadingiz? Uni o‘lchashda nimadan foydalandingiz? Shaklning eni nechta tayoqchaga teng? Shaklning bo‘yi nechta tayoqchaga teng?

Tushuntirish modeli: Men daftarning eni va bo‘yini o‘lchash uchun sanoq tayoqchalaridan foydalandim. Daftarning eni 2 ta, bo‘yi esa 4 ta tayoqchaga teng ekanini aniqladim.

Misol va yangi topshiriq.

Muhokama mavzusi

• To'g'ri to'rtburchak perimetrini topish. O'quvchilarga 1-qismda o'lchangan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini aniqlashni tushuntiring. Keling, endi yana bir topshiriqni bajaramiz. Bu topshiriqni bajarganda, biz:



• Hozirgina daftar va kitobning har bir tomoni uzunligini bilib oldik. Endi o'lchagan shaklning umumiy uzunligini aniqlashni o'rganamiz. Ya'ni kitob yoki daftarni aylanasiga o'lchaganda, u nechta tayoqchaga tengligini bilish uchun uning 4 ta tomoni uzunligini bir-biriga qo'shamiz.

• Daftarning eni 2 ta, bo'yi 4 ta sanoq tayoqchaga teng. Endi uning 4 ta tomoni uzunliklarini qo'shamiz, ya'ni $2 + 2 + 4 + 4$. Natija 12 ga teng.

Demak, daftarning umumiy uzunligi 12 ta tayoqchaga teng.

Bu perimetr deyiladi. Perimetr – bu shaklning barcha tomonlari uzunligidir. Berilgan shakllarning tomonlarini qog'oz qisqich yordamida o'lchab, perimetrini topib yozing.



Dam olish daqiqasi:



Misollarni bajarib ovqat tayyorlaymiz



$18 - 9 =$ $14 - 6 =$ $13 + 5 =$ $7 + 3 =$ $17 - 5 =$ $15 - 8 =$ $8 + 3 =$	 9	 18	 16	 10
	 12	 8	 17	 7
	 26	 11	 13	 14



V.Mavzuni mustahkamlash:

Qarichingiz yordamida partangiz uzunligini o'lchang va perimetrini topib yozing.

Amaliy topshiriq 15 daqiqa

- 1-topshiriqda o'quvchilarga berilgan shakllarning uzunligini skrepka yordamida o'lchab yozishi va perimetrini aniqlashini ayting.
- 2-topshiriqda qarichi yordamida parta uzunligini o'lchab yozishlarini ayting.

O'qituvchining kuzatishlari

O'quvchilar topshiriqni bajarayotganda, shakl atrofida nechta predmet borligini sanaydi. O'qituvchi predmetlar soni to'g'ri topilganiga e'tibor berishi kerak. Agar o'quvchi topshiriqni yengillik bilan bajarayotgan bo'lsa, unda sinf xonasidagi boshqa to'g'ri to'rtburchak shaklidagi narsaning perimetrini qarichlab topsin. Agar topshiriqning ko'p qismi to'g'ri bajarilgan bo'lsa, shu topshiriqni bajarishda davom etaversin. Agar topshiriqni bajarishga qiynalayotgan bo'lsa, o'qituvchi yordamida bajarsin.



VI. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash. Dars so'ngida o'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi va g'olib guruh aniqlanib, rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa berish:



Sanoq tayoqchasi yordamida dars qiladigan stolingizning uzunligini o'lchang va perimetrini aniqlab yozing.